



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining  
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:  
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini  
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat  
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda  
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq  
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar  
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini  
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish  
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi  
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti  
sifatida ommaviy axborot vositalarining  
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy  
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy  
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati  
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini  
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**  
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**  
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**  
The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 342.1(045)(575.1)

## IJTIMOY DAVLATNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARINI RO'YOBGA CHIQRISH – MUHIM VAZIFA

**Azizov Xudoyqul Tojiyevich,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor  
ORCID: 0000-0001-6485-4708  
e-mail: xazizov1964@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy davlatning o'zbek modelini, uning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish, unda "inson-jamiyat-davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarish masalalari ko'tarilgan. Respublikamizda taraqqiyotning hozirgi bosqichida demokratik huquqiy davlat barpo etish sari mamlakatni modernizatsiya qilish borasida tub islohotlar amalga oshirilayotganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, modernizatsiya, taraqqiyot, qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi, jamiyat.

### РЕАЛИЗАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ ОСНОВ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА – ВАЖНАЯ ЗАДАЧА

**Азизов Худойкул Тожиевич,**

доктор юридических наук, профессор, первый проректор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье поднимаются вопросы узбекской модели социального государства, её становления и дальнейшего развития, реализации в ней принципа «человек – общество – государство». На нынешнем этапе развития в нашей стране осуществляются коренные реформы по модернизации страны в сторону построения демократического правового государства.

**Ключевые слова:** социальное государство, правовое государство, модернизация, развитие, верховенство закона, государственное управление, общество.

### IMPLEMENTATION OF THE CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE SOCIAL STATE IS AN IMPORTANT TASK

**Azizov Khudoykul Tojievich,**

First deputy Rector of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

**Abstract.** The article addresses the issues of considering the Uzbek model of the welfare state, its formation and development features, and the implementation of the principle of "man-society-state" within it. It is explained that at the current stage of development in our republic, fundamental reforms are being undertaken to modernize the country, aiming towards the establishment of a democratic legal state.

**Keywords:** social state, legal state, modernization, development, supremacy of law, public administration, society.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar rivojlanishida aholini ijtimoiy himoyalash, umuman samarali ijtimoiy siyosat yuritish, bir tomondan, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ilg'or jahon tajribasiga, taraqqiy etgan davlatlar erishgan yutuqlarga asoslangan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Aholiga davlatimizning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgaruvchan rolini, uning ijtimoiy sohani boshqarishdagi vazifalari va mas'uliyatini tushuntirish, shuningdek, ijtimoiy davlatning o'zbek modelini, uning shakllanishi va keyingi rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish, unda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda: "Asosiy qonunimizda "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki "inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu g'oyaning tub negizida ham avvalo inson qadri ulug'lash, insonga xizmat qilishdek oliyanob maqsad mujassamdir" [1], – deb ta'kidlagan edi.

Shundan kelib chiqib va xalq irodasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish kabi normalar muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" tamoyiliga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, jumladan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, fuqarolarimizning ijtimoiy ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalash, uy-joyga ega bo'lishga qaratilgan qoidalarining yanada takomillashtirilishi alohida o'ringa ega.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasining birinchi qismida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi mustahkamlandi. Bu norma mamlakatimiz "ijtimoiy davlat" ekanligining konstitutsiyaviy asosini belgilab berdi.

Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g'amxo'rlik davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, konstitutsiyamizda insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi, majburiyati ekanligi mustahkamlandi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 43-moddasida "bandlikni ta'minlash", "ishsizlikdan himoya", "kambag'allikni qisqartirish" bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko'paytirildi.

Ayniqsa, Konstitutsiyaning 47-moddasida "har kimning uy-joyli bo'lish huquqi" mustahkamlandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Ijtimoiy kafolatlar nuqtayi nazaridan hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarining o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlanmoqda.

Yangi Konstitutsiyada davlat hisobidan tibbiy yordam ko'rsatish (48-modda), har kim qulay atrof-muhitga ega bo'lishi (49-modda), ta'limga e'tibor va kafolatlar (50-modda), davlat grantlarining ko'payishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish, inklyuziv ta'lim (50-modda), o'qituvchilarning sha'ni va qadr-

qimmati (52-modda), tadqiqotlar o'tkazish (51-modda), oila, bolalar va yoshlar masalasiga alohida bob ajratilgan (XIV bob), unda oila rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish (76-modda), farzandlar ta'lim olishi ota-ona majburiyati (77-modda), har kim adolatli haq olish huquqi (42-modda), ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi (42-modda), bola mehnati taqiqlanishi (44-modda), ijtimoiy ta'minot olish kafolatlanishi (46-modda) kabi ko'plab normalar mustahkamlangan bo'lib, "ijtimoiy davlat"ning konstitutsiyaviy asoslarini belgilab beradi.

Xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida quyidagi ijtimoiy davlatning uchta modelini ajratish mumkin:

**Birinchi**dan, Shvetsiya, Finlandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi.

**Ikkinchi**dan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan.

**Uchinchi**dan, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlari: Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda [2].

Keyingi yillarda "ijtimoiy davlatchilik" O'zbekistonda ham rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy himoyalash siyosati muhtojlarga moddiy yoki pul shaklida yordam ko'rsatishdangina iborat bo'lmasdan, balki mamlakat ijtimoiy infratuzilmalarining normal ishlashini ta'minlash, bu sohada samarali davlat va jamoat boshqaruvini amalga oshirish, ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, aholi uchun har tomonlama qulay yashash sharoitlarini ta'minlab berish masalalarini ham qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasida "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlil ijtimoiy-iqti-

sodiy islohotlarni davom ettirish, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat hokimiyat organlarining bosh vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son qarorida belgilangan vazifalar doirasida "Kambag'allikni qisqartirish dasturi" va 2021-yildan boshlab barcha hududlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 544-son qarori asosida aholining ehtiyojmand qatlami vakillari uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati joriy etildi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror daromad manbayiga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar olib borilishining namunasi sifatida "mahallabay" ishlash tizimi orqali kam ta'minlangan aholi qatlamlarini kambag'allik holatidan chiqarish, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar" kabi ro'yxatlar shakllantirildi. Ularga kiritilgan fuqarolarga manzilli ko'mak berish va ularning ijtimoiy maqomini o'zgartirish tizimi uzluksiz ishlay boshladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lgan, taraqqiyotimiz uchun katta ahamiyatga molik hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 17-fevral kuni 2021-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan F-5634-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan 2021-2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi sanaladi. Unga ko'ra, 2030-yilda davlat budjetining ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan xarajatlari YIMga nisbatan 1,5 foizga yetkaziladi. Ijtimoiy himoya sohasida yagona mas'ul organ tuziladi. Farmoyish bilan 2021-2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi va strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Hujjatga muvofiq, aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasida ijtimoiy himoya so-

hasida ijtimoiy yordam va xizmatlarning bazaviy kafolatlari belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi tomonidan 2020-yilda tayyorlangan "O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash" natijalari va tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqildi. Strategiya Xalqaro mehnat tashkilotining ijtimoiy himoyaning minimal darajalari bo'yicha 202-son tavsiyalariga muvofiq, barcha fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoya darajasini kafolatlaydigan tizimni yaratishni nazarda tutadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashdagi davlat, uning organlarining o'rni, mavqeyi masalasi, ijtimoiy himoyani amalga oshirish chog'ida

bu sohadagi davlat organlari faoliyati takomillashtirib borilishi, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi masalalarini yangicha tartibga solish dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, "Ijtimoiy davlat"ning konstitutsiyaviy asoslari belgilangan ekan, bizning endigi vazifamiz uni real hayotga tatbiq etish, undan kelib chiqib boshqa qonun hujjatlarini ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Konstitutsiyada fuqarolarning ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy himoya va farovonlikni, adolat va qonun oldida tenglikni ta'minlashni o'z ichiga olgan ijtimoiy davlat asoslarining belgilanishi, davlat va fuqarolarning ijtimoiy himoya sohasidagi huquq va majburiyatlari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari yaratilishiga asos bo'ladi. Konstitutsiyada ijtimoiy davlatning tanlangan modeliga muvofiq, davlatning iqtisodiyotdagi va ijtimoiy sohadagi roli ham belgilanishi muhim hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir. <https://uza.uz/posts/383081>
2. Jo'rayev S.A. Ijtimoiy davlat deganda nimani tushunamiz? Yoxud ijtimoiy davlatchilik tajribasini ilgari surgan davlatlardagi katta ijtimoiy o'zgarishlar xususida. JAMIYAT, 14.06.2022

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.